



**Oqila BAYJANOVA,**

*Dotsent, PhD, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: oqilabayjanova89@gmail.com, ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-4031-8388>*

*Professori, f.f.d A.Xolboyeva taqrizi asosida*

## DIPLOMATIK DISKURSNING NUTQIY AKT TURLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada diplomatik diskursda qo'llaniladigan nutqiy akt turlari zamonaviy pragmalingsvistika hamda nutqiy aktlar nazariyasi doirasida kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi diplomatik muloqot jarayonida amalga oshiriladigan illokutiv harakatlarning lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlash, ularning kommunikativ maqsadi, funksional vazifasi va diplomatik munosabatlarni shakllantirishdagi o'rnini ilmiy asosda yoritishdan iborat. Maqolada nutqiy aktlar nazariyasining shakllanish bosqichlari, J. Austin va J. Searle tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar hamda ularning diplomatik diskursga tatbiq etilishi yoritilib, diplomatik bayonotlar, rasmiy murojaatlar, deklaratsiyalar, muzokara matnlari va xalqaro hujjatlar tarkibidagi reprezentativ, direktiv, komissiv, ekspressiv hamda deklarativ nutqiy aktlarning pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida nutqiy aktlar tahlili, diskursiv tahlil, lingvopragmatik yondashuv, qiyosiy-tavsifiy metod hamda kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

**Kalit so'zlar:** Diplomatik diskurs, nutqiy aktlar, nutqiy akt nazariyasi, illokutiv akt, perlokutiv ta'sir, lokutiv akt, lingvopragmatika, diplomatik muloqot, kommunikativ strategiya, illokutiv maqsad, diplomatik bayonot, rasmiy murojaat, deklarativ akt, direktiv akt, komissiv akt, ekspressiv akt.

## TYPES OF SPEECH ACTS IN DIPLOMATIC DISCOURSE

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of the types of speech acts employed in diplomatic discourse within the framework of contemporary pragmalingsvistics and speech act theory. The primary objective of the study is to identify the linguopragmatic characteristics of illocutionary acts performed in diplomatic communication, to determine their communicative purposes and functional roles, and to explain their significance in establishing and maintaining diplomatic relations from a scientific perspective. The paper examines the development of speech act theory, with particular emphasis on the concepts proposed by J. L. Austin and J. R. Searle and their application to diplomatic discourse. It further analyzes the pragmatic features of representative, directive, commissive, expressive, and declarative speech acts found in diplomatic statements, official addresses, declarations, negotiation texts, and international legal documents. The research employs speech act analysis, discourse analysis, a linguopragmatic approach, comparative-descriptive methodology, and contextual analysis.

**Key words:** Diplomatic discourse, speech acts, speech act theory, illocutionary act, perlocutionary effect, locutionary act, pragmalingsvistics, diplomatic communication, communicative strategy, illocutionary force, diplomatic statement, official address, declarative act, directive act, commissive act, expressive act.

## ВИДЫ РЕЧЕВЫХ АКТОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация

В данной статье комплексно анализируются виды речевых актов, используемых в дипломатическом дискурсе, в рамках современной прагмалингвистики и теории речевых актов. Основной целью исследования является выявление лингвопрагматических особенностей иллокутивных актов, реализуемых в процессе дипломатической коммуникации, определение их коммуникативных целей, функциональных задач и научное обоснование их роли в формировании и поддержании дипломатических отношений. В статье рассматриваются этапы становления теории речевых актов, концепции, разработанные Дж. Л. Остином и Дж. Р. Серлем, а также их применение к анализу дипломатического дискурса. Особое внимание уделяется прагматическим особенностям репрезентативных, директивных, коммиссивных, экспрессивных и декларативных речевых актов, функционирующих в дипломатических заявлениях, официальных обращениях, декларациях, текстах переговоров и международно-правовых документах. В ходе исследования использованы методы анализа речевых актов, дискурсивного анализа, лингвопрагматического подхода, сравнительно-описательного метода и контекстуального анализа.

**Ключевые слова:** Дипломатический дискурс, речевые акты, теория речевых актов, иллокутивный акт, перлокутивный эффект, локутивный акт, прагмалингвистика, дипломатическая коммуникация, коммуникативная стратегия, иллокутивная сила, дипломатическое заявление, официальное обращение, декларативный акт, директивный акт, коммиссивный акт, экспрессивный акт.

**Kirish.** Zamonaviy pragmalingsvistikada nutqiy akt nazariyasi til birliklarining kommunikativ vazifasi va so'zlovchi maqsadini aniqlashga xizmat qiluvchi muhim nazariy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur nazariya XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol rivojlanib, bugungi kunda siyosiy, huquqiy, diplomatik va boshqa institutsional diskurs turlarini tadqiq etishda keng qo'llanmoqda. "Nutqiy akt" tushunchasi dastlab ingliz faylasufi J. L. Austin tomonidan ilmiy asoslangan bo'lib, u nutq jarayonida so'zlovchi nafaqat ma'lumot uzatishi, balki muayyan harakatni ham amalga oshirishini ta'kidlaydi. Olim nutqiy faoliyatni lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlarga ajratadi.

Lokutiv akt mazmunli ifodani yaratishni, illokutiv akt so'zlovchining kommunikativ niyatini, perlokutiv akt esa tinglovchiga ko'rsatilgan ta'sirni anglatadi [Austin, 1962; 94-108]. Nutqiy aktlar nazariyasi keyinchalik amerikalik olim J. R. Searle tomonidan rivojlantirilib, illokutiv aktlar reprezentativ, direktiv, komissiv, ekspressiv va deklarativ turlarga tasniflangan [Searle, 1976; 10-16]. Ushbu tasnif diplomatik diskursni tadqiq etishda alohida ahamiyatga ega, chunki diplomatik muloqotda axborot berish, iltimos qilish, majburiyat olish, munosabat bildirish va rasmiy holatni o'zgartirish kabi kommunikativ maqsadlar turli nutqiy aktlar orqali amalga oshiriladi. Diplomatik bayonotlar,

notalar, deklaratsiyalar, memorandumlar va muzokara matnlarida nutqiy aktlarning tanlanishi siyosiy vaziyat, kommunikativ maqsad, diplomatik protokol va tomonlar o'rtasidagi munosabat bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Haqiqatan ham, nutqiy aktlar nazariyasining uzoq yillar davomida rivojlanishi natijasida til orqali amalga oshiriladigan kommunikativ harakatlarni o'rganishga qaratilgan bir nechta ilmiy yondashuvlar shakllangan. Mazkur yondashuvlar nutqiy aktning tabiati, illokutiv maqsad, kommunikativ niyat va tinglovchiga ko'rsatiladigan pragmatik ta'sirni izohlash tamoyillari bilan birbiridan farqlanadi. Ular orasida, ayniqsa, J. Austin konsepsiyasi, J. Searle tasnifi, G. Grice pragmatik yondashuvi hamda K. Bach va R. Harnish modeli alohida o'rin tutadi.

J. Austin tomonidan asos solingan klassik yondashuv XX asrning 50-60-yillarida shakllanib, nutqni faqat axborot yetkazuvchi vosita sifatida emas, balki muayyan harakatni amalga oshiruvchi hodisa sifatida talqin etadi. Olimning fikriga ko'ra, har qanday nutqiy ifoda lokutiv, illokutiv va perlokutiv bosqichlardan tashkil topadi. Lokutiv akt grammatik va semantik jihatdan mazmunli gapni hosil qilishni, illokutiv akt so'zlovchining maqsadini, perlokutiv akt esa tinglovchida yuzaga keldigan ta'sirni anglatadi [Austin, 1962; 94-108]. Diplomatiq muloqotda mazkur uch bosqich o'zaro bog'liq holda namoyon bo'lib, rasmiy bayonotning mazmuni, siyosiy niyati va adresatga ta'sirini belgilaydi.

J. Searle yondashuvi nutqiy aktlar nazariyasini tizimlashtirishga qaratilgan bo'lib, unda asosiy e'tibor illokutiv kuch va kommunikativ maqsadga qaratiladi. Olim nutqiy aktlarni reprezentativ, direktiv, komissiv, ekspressiv va deklarativ turlarga ajratadi [Searle, 1976; 10-16]. Reprezentativ aktlar voqelik haqidagi fikrni bayon qilishga, direktivlar adresatni muayyan harakatga undashga, komissivlar kelajakdagi majburiyatni ifodalashga, ekspressivlar hissiy yoki baholovchi munosabatni bildirishga, deklarativlar esa mavjud ijtimoiy yoki huquqiy holatni o'zgartirishga xizmat qiladi. Ushbu tasnif diplomatik notalar, muzokaralar, deklaratsiyalar va rasmiy murojaatlardagi pragmatik maqsadlarni aniqlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

G. Grice tomonidan ishlab chiqilgan pragmatik yondashuv nutqiy muloqotda so'zlovchi niyati va yashirin ma'noni aniqlashga asoslanadi. Olim hamkorlik tamoyili hamda miqdor, sifat, munosabat va usul maksimlarini ilgari surib, muloqot ishtirokchilarining bevosita ifodalanmagan ma'noni qanday anglashini tushuntiradi [Grice, 1975; 45-47]. Diplomatiq diskursda ushbu yondashuv alohida ahamiyatga ega, chunki siyosiy ehtiyotkorlik, bilvositalik va implikatura orqali muayyan talab, ogohlantirish yoki norozilik ochiq shaklda emas, balki yumshatilgan nutqiy vositalar yordamida ifodalanadi.

K. Bach va R. Harnish modeli esa nutqiy akti so'zlovchining kommunikativ niyati hamda tinglovchining ushbu niyatni anglash jarayoni bilan bog'liq holda izohlaydi. Ular nutqiy aktlarni konstativ, direktiv, komissiv va e'tirof etuvchi aktlarga ajratib, illokutiv kuchning kontekst, umumiy bilim va kommunikativ vaziyat orqali aniqlanishini ta'kidlaydilar [Bach, Harnish, 1979; 39-51]. Mazkur yondashuv diplomatik bayonotlarda bir xil til birligining turli siyosiy vaziyatlarda turlicha pragmatik vazifa bajarishini tushuntirish imkonini beradi.

Yuqorida qayd etilgan nazariy yondashuvlardan kelib chiqib aytish mumkinki, diplomatik diskursdagi nutqiy aktlar lingvistik shakl, so'zlovchining illokutiv maqsadi, adresatning interpretatsiyasi hamda siyosiy va ijtimoiy kontekstning murakkab o'zaro munosabati asosida shakllanadi. Shu sababli ularni faqat grammatik yoki semantik jihatdan emas, balki kommunikativ niyat, pragmatik ta'sir va diplomatik strategiyalar bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

**Tadqiqot metodlari.** Yuqorida qayd etilgan olimlarning ilmiy qarashlari nutqiy aktlarni faqat grammatik yoki semantik birlik sifatida emas, balki muayyan kommunikativ niyat, illokutiv kuch va perlokutiv ta'sirni mujassamlashtiruvchi pragmatik hodisa sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Aynan shu nazariy yondashuvlar mazkur tadqiqotning metodologik asosini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi. Shu asosda diplomatik

diskursdagi nutqiy aktlarga rasmiy muloqot jarayonida siyosiy pozitsiya, kommunikativ maqsad va diplomatik strategiyalarni ifodalovchi dinamik birliklar sifatida yondashildi hamda kompleks tahlil metodlaridan foydalanildi. Xususan, nutqiy aktlar tahlili yordamida diplomatik bayonotlar, rasmiy murojaatlar, notalar, deklaratsiyalar va muzokara matnlarida uchraydigan reprezentativ, direktiv, komissiv, ekspressiv hamda deklarativ aktlar aniqlandi. Mazkur metod har bir nutqiy birlikning illokutiv maqsadi, funksional vazifasi va adresatga ko'rsatadigan pragmatik ta'sirini ochib berish imkonini yaratdi. Diskursiv tahlil vositasida nutqiy aktlarning diplomatik kommunikatsiyadagi institutsional, siyosiy va pragmatik xususiyatlari o'rganildi. Qiyosiy-tavsifiy metod yordamida turli nutqiy aktlarning strukturaviy va funksional belgilari o'zaro solishtirilib, ularning umumiy hamda farqli jihatlari belgilandi. Kontekstual tahlil esa nutqiy aktlarning ma'nosi va illokutiv kuchini muayyan siyosiy vaziyat, kommunikativ sharoit, tomonlar o'rtasidagi munosabat va diplomatik protokol bilan bog'liq holda izohlashga xizmat qildi.

**Natija va munozara.** Xorijiy tilshunos olimlarning nutqiy akt nazariyasiga oid ilmiy qarashlarini alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, J. R. Searle illokutiv aktlarni ularning kommunikativ maqsadi va funksiyasiga ko'ra besh asosiy turga ajratadi. Birinchi guruh – reprezentativ aktlar bo'lib, ular orqali so'zlovchi voqelik haqidagi fikr, xabar yoki bahoni ifodalaydi. Ikkinchi guruh – direktiv aktlar bo'lib, adresatni muayyan harakatni bajarishga undashga xizmat qiladi. Uchinchi guruh – komissiv aktlar so'zlovchining kelajakdagi harakatiga oid majburiyatni bildiradi. To'rtinchi guruh – ekspressiv aktlar muloqot ishtirokchisining hissiy yoki baholovchi munosabatini ifodalasa, beshinchi guruh – deklarativ aktlar muayyan institutsional sharoitda huquqiy yoki ijtimoiy holatni o'zgartirish vazifasini bajaradi [Searle, 1976; 10-16]. Mazkur tasnif bugungi kunda pragmatiklingvistika va institutsional diskurs tadqiqotlarining asosiy nazariy manbalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Shu nuqtayi nazardan, nutqiy aktlar faqat grammatik shakllar yig'indisi emas, balki muayyan kommunikativ vaziyat, illokutiv maqsad hamda pragmatik ta'sir bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab kommunikativ hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

J. L. Austin tomonidan ilgari surilgan nutqiy akt nazariyasi keyinchalik ko'plab tilshunos va pragmatiklingvistlar tomonidan rivojlantirildi. Xususan, G. Grice nutqiy muloqotni hamkorlik tamoyili asosida izohlar ekan, har qanday nutqiy aktning mazmuni faqat uning grammatik shakli bilan emas, balki kommunikativ vaziyat va so'zlovchi niyati bilan ham belgilanishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, muloqot ishtirokchilari hamkorlik tamoyiliga amal qilgan holda yashirin ma'nolarni anglaydilar va shu orqali nutqning haqiqiy pragmatik mazmuni yuzaga chiqadi [Grice, 1975; 45-47]. Ayniqsa, diplomatik muloqotda implikatura, bilvosita ifoda va ehtiyotkor til vositalarining keng qo'llanilishi Grice nazariyasining amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Nutqiy aktlarning mazmuni va funksiyasini aniqlashda kommunikativ kontekst alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, K. Bach va R. Harnish nutqiy akti faqat til shakli orqali emas, balki so'zlovchining kommunikativ niyati hamda tinglovchining ushbu niyatni to'g'ri interpretatsiya qilishi orqali izohlaydilar [Bach, Harnish, 1979; 39-51]. Ularning fikricha, bir xil grammatik shakl turli kommunikativ vaziyatlarda mutlaqo boshqa illokutiv kuchga ega bo'lishi mumkin. Xuddi shu sababli diplomatik bayonot, nota yoki deklaratsiyani tahlil qilishda faqat matn mazmuni emas, balki siyosiy vaziyat, diplomatik protokol, kommunikatsiya ishtirokchilari va institutsional kontekst ham hisobga olinishi zarur. Demak, diplomatik diskursdagi nutqiy aktlarni to'laqonli anglash ularning lingvistik shakli bilan bir qatorda pragmatik, siyosiy va kommunikativ omillarni kompleks ravishda tahlil qilishni talab etadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pragmatiklingvistikada nutqiy akt tushunchasi turli ilmiy yondashuvlar asosida tavsiflanadi. Xususan, J. R. Searle nutqiy aktlarni ularning illokutiv maqsadi, so'zlovchining psixologik holati hamda ifoda mazmunining voqelik bilan munosabatiga ko'ra tasniflaydi. Uning fikricha, nutqiy akt oddiy grammatik birlik

emas, balki muayyan kommunikativ maqsadni amalga oshiruvchi pragmatik harakatdir. Shu bois bir xil sintaktik qurilma turli kommunikativ vaziyatlarda xabar berish, iltimos qilish, ogohlantirish, va'da berish yoki munosabat bildirish kabi turli illokutiv vazifalarni bajarishi mumkin. Nutqiy aklning aniq mazmuni esa til shakli bilan bir qatorda, adresantning niyati, adresantning interpretatsiyasi, muloqot sharoiti va institutsional kontekst asosida belgilanadi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlardan anglashiladiki, "gap" va "nutqiy akt" tushunchalari aynan bir xil mazmuni ifodalovchi kategoriyalar emas. Gap, asosan, grammatik va semantik jihatdan shakllangan lisoniy birlik bo'lsa, nutqiy akt muayyan kommunikativ vaziyatda amalga oshiriladigan maqsadli nutqiy harakat hisoblanadi. Shu bois gap nutqiy aklning lingvistik shakli sifatida namoyon bo'lsa, nutqiy akt ushbu shaklning kommunikativ niyat, illokutiv kuch va pragmatik ta'sir bilan boyitilgan ko'rinishini anglatadi. Demak, nutqiy akti to'liq tushunish uchun faqat ifodaning lug'aviy mazmunini emas, balki uning kim tomonidan, kimga, qanday vaziyatda va qanday maqsadda aytilganini ham hisobga olish lozim. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, diplomatik muloqotda nutqiy aktlar davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi rasmiy munosabatlarni tartibga solishning muhim pragmatik vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Diplomatik diskurs doirasida amalga oshiriladigan har bir bayonot, murojaat, talab, taklif, va'da yoki norozilik muayyan siyosiy maqsadga yo'naltirilgan nutqiy harakatni ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan, diplomatik nutqiy aktlar elchilar, davlat rahbarlari, diplomatlar, siyosiy arboblardan va xalqaro tashkilotlar vakillari tomonidan amalga oshiriladigan institutsional kommunikativ harakatlar majmui sifatida talqin etilishi mumkin. Mazkur aktlar xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, siyosiy pozitsiyani bildirish, tomonlarni muayyan harakatga undash, majburiyatlarni belgilash, nizolarni yumshatish va diplomatik munosabatlarni boshqarishga xizmat qiladi. Diplomatik nutqiy aktlarning mohiyati va funksiyalari yuzasidan qator olimlar o'z fikrlarini bildirganlar. Jumladan, J. L. Austin nutq jarayonida so'zlovchi faqat voqelik haqida ma'lumot bermasdan, balki til vositasida muayyan harakatni ham amalga oshirishini ta'kidlaydi [Austin, 1962; 94-108]. J. R. Searle esa nutqiy aktlarni reprezentativ, direktiv, komissiv, ekspressiv va deklarativ turlarga ajratib, ularning har biri alohida kommunikativ vazifani bajarishini asoslaydi [Searle, 1976; 10-16]. Mazkur nazariy qarashlarga tayangan holda diplomatik nutqiy aktga quyidagicha umumlashtirilgan ta'rif berish mumkin: diplomatik nutqiy akt – xalqaro va davlatlararo rasmiy muloqotda muayyan siyosiy, kommunikativ yoki institutsional maqsadni amalga oshirishga xizmat qiluvchi, ehtiyotkorlik, me'yoriylik va strategik yo'naltirilganlik bilan tavsiflanuvchi nutqiy harakatdir. U, odatda, bevosita yoki bilvosita shaklda ifodalanib, siyosiy pozitsiyani bayon qilish, adresatga ta'sir ko'rsatish, diplomatik majburiyatni belgilash, rasmiy munosabatni ifodalash yoki mavjud siyosiy-huquqiy holatni o'zgartirishga xizmat qiladi. Mavjud nazariy tasniflarni tahlil qilish asosida diplomatik diskursda qo'llaniladigan nutqiy aktlarning quyidagi asosiy turlarini ajratish mumkin: Reprezentativ nutqiy aktlar diplomatik muloqotda muayyan voqea, siyosiy holat, davlat pozitsiyasi yoki xalqaro munosabatlarga doir axborotni bayon qilishga xizmat qiladi.

Bunday aktlar, odatda, rasmiy bayonotlar, hisobotlar, press-relizlar va diplomatik ma'ruzalarda uchraydi hamda adresantning muayyan fikr yoki xulosaning haqqoniyligiga bo'lgan munosabatini ifodalaydi.

Direktiv nutqiy aktlar adresatni muayyan harakatni amalga oshirishga undovchi kommunikativ birliklarni anglatadi. Diplomatik diskursda ular talab, iltimos, tavsiya, chaqiriq, taklif yoki ogohlantirish shaklida namoyon bo'ladi. Biroq diplomatik etikaga ko'ra, bunday aktlar ko'pincha bevosita buyruq tarzida emas, balki yumshatilgan va bilvosita ifodalar orqali amalga oshiriladi.

Komissiv nutqiy aktlar so'zlovchi yoki u vakillik qilayotgan davlatning kelajakdagi harakatiga doir majburiyatini ifodalaydi. Ular va'da berish, kafolatlash, rozilik bildirish, majburiyat olish yoki hamkorlikka tayyorlikni ma'lum qilish kabi shakllarda qo'llanadi. Mazkur aktlar xalqaro bitimlar, qo'shma bayonotlar va muzokara matnlarida muhim pragmatik ahamiyat kasb etadi.

Ekspressiv nutqiy aktlar adresantning muayyan voqea-hodisa yoki adresatga nisbatan hissiy-baholovchi munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Diplomatik tabrik, minnatdorlik, hamdardlik, uzr, mamnunlik yoki tashvish bildirish kabi birliklar ushbu turga mansub bo'lib, ular davlatlararo munosabatlarda hurmat, hamjihatlik va diplomatik nazokatni ta'minlaydi.

Deklarativ nutqiy aktlar esa muayyan institutsional vakolat asosida mavjud siyosiy, huquqiy yoki diplomatik holatni o'zgartiruvchi nutqiy harakatlardir. Bunday aktlarga diplomatik munosabatlarning o'rnatilishi yoki to'xtatilishi, bitimning kuchga kirishi, davlatning tan olinishi, muzokaraning ochiq deb e'lon qilinishi kabi holatlar kiradi. Umuman olganda, diplomatik nutqiy akt – aniq illokutiv maqsadga, institutsional vakolatga va adresatga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan kommunikativ harakatdir [Searle, 1976; 10-16].

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, diplomatik diskursdagi nutqiy aktlarni lingvopragmatik nuqtayi nazardan tadqiq etish faqat ularning grammatik yoki semantik xususiyatlarini aniqlash bilan cheklanmaydi. U, shu bilan birga, so'zlovchining kommunikativ niyati, illokutiv maqsadi, adresatga ko'rsatiladigan perlokutiv ta'sir hamda siyosiy va institutsional omillar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ham qamrab oladi. Diplomatik muloqotda reprezentativ, direktiv, komissiv, ekspressiv va deklarativ aktlar muayyan siyosiy vaziyat, diplomatik protokol va kommunikativ strategiyaga muvofiq ravishda qo'llanadi. Shu sababli ularni faqat alohida nutqiy birliklar sifatida emas, balki davlatlararo munosabatlarni tartibga solish, siyosiy pozitsiyani ifodalash, majburiyatlarni belgilash, hamkorlikni rivojlantirish va ziddiyatlarni yumshatishga xizmat qiluvchi pragmatik vositalar sifatida tahlil etish zarur.

Shuningdek, diplomatik nutqiy aktlarni o'rganish pragmalingvistika, siyosiy kommunikatsiya, diplomatik tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarini uchun muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tadqiqotlarda nutqiy aktlarni faqat bevosita ifodalangan mazmun asosida emas, balki ularning bilvositaligi, implikaturasi, institutsional kuchi va strategik kommunikativ vazifalari bilan birgalikda talqin qilish ustuvor ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Austin J. L. *How to Do Things with Words* / Edited by J. O. Urmson. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – 166 p.
2. Searle J. R. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.
3. Searle J. R. *A Classification of Illocutionary Acts* // *Language in Society*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1976. – Vol. 5, № 1. – P. 1–23.
4. Searle J. R. *Indirect Speech Acts* // *Syntax and Semantics*. Vol. 3: *Speech Acts* / Eds. P. Cole, J. L. Morgan. – New York: Academic Press, 1975. – P. 59–82.
5. Grice H. P. *Logic and Conversation* // *Syntax and Semantics*. Vol. 3: *Speech Acts* / Eds. P. Cole, J. L. Morgan. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41–58.
6. Bach K., Hamish R. M. *Linguistic Communication and Speech Acts*. – Cambridge, Massachusetts: MIT Press, 1979. – 327 p.
7. Levinson S. C. *Pragmatics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 420 p.
8. Mey J. L. *Pragmatics: An Introduction*. – 2nd ed. – Oxford: Blackwell Publishing, 2001. – 392 p.
9. Vanderveken D. *Meaning and Speech Acts*. Vol. 1: *Principles of Language Use*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 244 p.
10. Brown P., Levinson S. C. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.